



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



50.	ONA TILI DARSLARIDA DISKURSIV YONDASHUV ORQALI NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN TAVSIYALAR <i>Boymaxmatova Dilnoza Do‘smat qizi</i>	217-219
51.	TASVIRIY MATN YARATISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA METODIK QO‘LLANMALAR TAHLILI <i>Zebiniso Davronova Bahtiyor qizi</i>	220-222
52.	FE‘L SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH (5-7 sinf ona tili darsliklar misolida) <i>Hamroyev Umid Mustafoyevich</i>	223-228
53.	NEOLOGIZMLARNI O‘QITISHDA “RAFT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH <i>Karamatdinova Gavhar Toyirovna</i>	229-232
54.	ONA TILI TA‘LIMIDA ADABIY TAHRIR: TAJRIBA, TAHLIL VA XULOSALAR <i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich</i>	233-240
55.	KICHIK GURUHLARDA SO‘ZNING SEMANTIK TARKIBINI O‘QITISH USULLARI <i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi</i>	241-244
56.	SENSOR AFAZIYADA FONOLOGIK FARQLASHGA OID TAJRIBA TAHLILI <i>Lobar Qambarova Athamboy qizi</i>	245-250
57.	ONA TILI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV TUSHUNCHASI VA UNING TA‘LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI <i>Nursulton Shayxislamov</i>	251-253
58.	5-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDAGI O‘QUV LOYIHALARI TAHLILI <i>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</i>	254-259
59.	UMUMIY TA‘LIM TIZIMIDA MORFONOLOGIYANI O‘QITISH METODIKASI: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR <i>Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna</i>	260-263
O‘ZBEK ADABIYOTI: TADQIQ, TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI		
60.	DAVR, ADABIYOT VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOLARI <i>Qozoqboy Yo‘ldoshev</i>	264-270
61.	“FUNUN UL-BALOG‘A”DA MIRZO ULUG‘BEK MADHI <i>Marg‘uba Abdullayeva</i>	271-275
62.	BOLALAR ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Xurshida Hamroqulova</i>	276-283
63.	MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDAGI YANGILANISHLAR <i>Islomjon Yaqubov</i>	284-290
64.	HALIMA AHMAD MANSURALARI HAQIDA MULOHAZALAR <i>Hoshimjon Ahmedov</i>	291-295



5-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDAGI O‘QUV LOYIHALARI TAHLILI

Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206666>

Annotatsiya. Maqolada 5-sinf “Ona tili” darsligidagi o‘quv loyihalarining mazmuni tahlilga tortilgan, ularning maqsad-vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Darslikdagi loyiha ishlari turi va mazmuniga ko‘ra tavsiflangan. Ona tili darslarini loyihalar asosida samarali tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, loyiha ishi, topshiriq, loyiha turlari, jamoaviy loyiha, individual loyiha, ijodiy loyiha, tadqiqotchilik loyihasi, rolli-o‘yinli loyiha.

Yangilangan ona tili darsliklarida lingvistik bilimni matn orqali yetkazib berishga, grammatik qoidalarni nutqiy mavzular doirasida tushuntirishga urg‘u qaratilgan. 2024-yil nashrdan chiqqan 5-sinf “Ona tili” darsligi ham o‘zida kommunikativ yondashuvni aks ettirgan. Darslikdan o‘rin olgan mashq va topshiriqlar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, loyiha texnologiyasiga asoslangan o‘quv topshiriqlarning ham berilishi ona tili ta’limining yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi.

5-sinf “Ona tili” darsligida jami 6 ta (darslikning birinchi qismida 3 ta, ikkinchi qismida 6 ta) o‘quv loyihasi berilgan. Ular darslikda alohida “Loyiha ishi” nomi bilan ajratib ko‘rsatilgan. Quyidagi jadvalda 5-sinf “Ona tili” darsligidagi loyihalar haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan:

№	Loyiha nomi	Loyiha turi		
		Ishtirokchilar soniga ko‘ra	Faoliyat turiga ko‘ra	Davomiyligiga ko‘ra
1.	“Jonajon Vatanim!”	Individual	Ijodiy	Qisqa muddatli
2.	Lug‘at tayyorlash	Jamoaviy	Tadqiqotchilik	O‘rta
3.	“O‘rtog‘imga yondaftarcha”	Individual	Ijodiy-tadqiqotchilik	O‘rta
4.	“Bizning teatr”	Jamoaviy	Rolli-o‘yinli	Qisqa muddatli
5.	“Orzular sari dadil qadamlar”	Individual	Axborot beruvchi	Uzoq
6.	“Zukko kitobxon”	Jamoaviy	Axborot beruvchi, ijodiy	Uzoq



Quyida mazkur loyiha topshiriqlarining qisqacha mazmunini tahlil qilamiz:

Darslikdagi dastlabki loyiha “O‘zbekiston – Vatanim manim!” bobida berilgan **“Jonajon Vatanim” nomli loyiha** [1:31] bo‘lib, u to‘rt bosqichdan iborat. Mazkur loyiha ishida o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish negizida ularda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsad qilib olingan.

1-bosqichda o‘quvchilarga Vatanga bo‘lgan muhabbatni ifodalashning turli shakllari mavjudligi, ular qo‘shiq, she‘r, hikoya, rasm kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkinligi haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. O‘quvchilarni loyihaga olib kirish uchun ularga mustaqil fikrlashga undovchi savollar bilan murojaat qilingan (Vatan mavzusidagi ijodiy ishlarining qaysi shakli sizga ko‘proq ma‘qul keladi? Qobiliyatingizga mos ifoda usuli haqida o‘ylab ko‘ring).

2-bosqich bevosita o‘quvchining mustaqil ijodiy faoliyatini qamrab olgan bo‘lib, topshiriqqa asosan o‘quvchilar Vatanga bo‘lgan muhabbatni aks ettiruvchi ijodiy ish namunasini tayyorlashlari lozim.

3-bosqichda ijodiy ish taqdimotiga tayyorlanish bo‘yicha zaruriy ko‘rsatmalar berilgan bo‘lsa, 4-bosqichda bevosita loyiha ishini taqdim etish ko‘zda tutilgan.

Loyiha ta‘lim texnologiyasini qo‘llashda loyihaga kirish, loyiha ustida ishlash, taqdimot qilish bosqichlarida o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalar, bildiriladigan fikr-mulohazalar qay darajada muhim bo‘lsa, taqdimotdan keyingi qayta aloqa, yutuq va kamchiliklarni birgalikda tahlil qilish kabi jarayonlar ham shu darajada muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlar keyingi loyihalarni to‘g‘ri va sifatli bajarishni ta‘minlab beradi. Loyihaga asoslangan ta‘limda qayta aloqa faqat o‘qituvchi tomonidan emas, boshqa usullarda ham taqdim etilishi mumkin [4:58]:

- o‘quvchining o‘zi tomonidan bildiriladigan fikr-mulohazalar;
- sinfdoshlarining, shu loyihani bajargan guruhlarining bahosi;
- berilgan loyiha ishini (yoki analogini) avval bajargan boshqa sinf o‘quvchilarining fikr-mulohazalari;
- yoshi katta insonlar, ekspertlar tarafidan beriladigan baho.

Darslikda loyiha ishlaridan keyingi tahlilga alohida e‘tibor berilganini ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni loyiha ishlarining aksariyati taqdimot bilan yakunlanib qolmaydi, loyihadan keyingi tahlil, o‘z-o‘zini baholash ishlari uy vazifasi ko‘rinishida yoki takrorlash darslarida davom etadi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan 1-loyiha ishidan keyin uy vazifasi sifatida berilgan topshiriq sharti quyidagicha: “Bir xil



mavzuda, ammo ikki xil shaklda tayyorlangan ijodiy ishni o‘zaro taqqoslang. Ularning farqli jihatlari haqida qisqa izoh yozing”.

Bob tugallanganidan keyin berilgan “Bob yuzasidan takrorlash” mavzusida tayyorlangan ijodiy ishlardan birini tanlab, ularni baholashga oid topshiriq o‘rin olgan. Baholash uchun mezonlar taqdim etilgan. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda tanqidiy-tahliliy fikr yurita olish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

2-loyiha ishi “Fan va texnologiyalar” bobida berilgan bo‘lib, 5 bosqichdan iborat bo‘lgan jamoaviy xarakterdagi loyiha hisoblanadi [1:58].

Loyiha maqsadi lug‘at tuzishdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda o‘quvchilardan guruhlariga bo‘lingan holda qanday mavzuda lug‘at yaratish bo‘yicha fikr almashishlari so‘ralgan, lug‘at uchun bir nechta mavzu yo‘nalishlari taklif qilingan (olqish so‘zlar lug‘ati, murojaat so‘zlar lug‘ati, qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar lug‘ati va b.).

2-bosqichda lug‘at kitobchasini tayyorlashni boshlash, 3-bosqichda esa kitobchaning muqova va sahifalarini bezatish topshiriqlari ustoda ishlanadi. 4-bosqichda o‘quvchilar lug‘at uchun tanlangan so‘zlarni alifbo tartibida yozib chiqishlari hamda ularning izohlarini keltirishlari lozim. Yakuniy bosqich loyiha taqdimotiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda guruhlar o‘zlari yaratgan lug‘at kitobchasi haqida qisqacha ma‘lumot berishlari zarur. Taqdimot uchun aniq vaqt chegarasi (5 daqiqa) belgilab berilgan.

Shuningdek, guruhlar bir-birini tahlil qilishi, munosabat bildirishi uchun taqdimotdan keyingi jarayonlarga qaratilgan topshiriq ham o‘rin olgan bo‘lib, topshiriq shartiga ko‘ra o‘quvchilar quyidagi mezonlar asosida guruhlarining loyihalarini tahlil qilishlari lozim:

- lug‘at kitobining tanlangan lug‘at turiga mosligi;
- lug‘at kitobining shakli, dizayni;
- tanlangan so‘zlarning imlosi;
- taqdimotda adabiy til qoidalariga qay darajada rioya qilingani.

Uyga vazifa sifatida esa o‘quvchi o‘ziga yoqqan guruh lug‘atini tanlash va uni yanada boyitish bo‘yicha takliflar yozib kelish topshirig‘i berilgan.

Mazkur loyiha ishi o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihani bajarish davomida o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati (so‘zlarni qidirish, turli manbalarga murojaat qilish, axborotlar bilan ishlash va ularni



saralash) yo‘lga qo‘yilgani sababli, bu loyiha ishini tadqiqotchilik loyihasi turiga kiritish mumkin.

“Til va dil” bobidagi 3-loyiha ishi **“O‘rtog‘imga yondaftarcha”** [1:99] deb nomlangan bo‘lib, loyiha mazmuni o‘quvchining sinfdoshiga tavsiyalari yozilgan yondaftarcha yaratishidan iborat. Tavsiyalar nutqda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, muomala madaniyatiga rioya qilish kabilarga oid bo‘lishi kerak. Loyiha ishi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1-bosqichda – kundalik muloqotda amal qilinishi lozim bo‘lgan 5 ta tavsiya yozish;

2-bosqichda – sinfdoshi nutqida kuzatiladigan muomala odobidan chetga chiqish holatlarini o‘rganish va bunday holatlarni bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

3-bosqichda – biror chet tilini o‘rganishga oid 5 ta tavsiya yozish;

4-bosqichda – ifodali o‘qish uchun 3 ta she‘r tavsiya qilish;

5- bosqich – loyiha taqdimoti (yondaftarchani o‘rtog‘iga taqdim etish).

“O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi ham individual xarakterda. Loyiha ijodiy, tadqiqotchilik, axborot beruvchi loyihalarning sifatlarini o‘zida jamlagan, shunga ko‘ra, u ijodiy-tadqiqotchilik loyihasi sifatida baholanishi mumkin.

Darslikning ikkinchi qismida quyidagi loyiha ishlari bilan ishlash ko‘zda tutilgan:

“San‘at” bobida berilgan 3 bosqichli **“Bizning teatr”** [2:55] loyihasi jamoaviy turdagi loyiha bo‘lib, bunda o‘quvchilar guruhlariga bo‘lingan holda ma‘lum bir ertak yoki hikoyani sahnalashtirishlari lozim. 1-bosqichda kichik guruhlariga bo‘linish, sahnalashtiriladigan asarni tanlash, guruhdagi vazifalarni taqsimlash kabi ishlar amalga oshiriladi. 2-bosqich o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, spektakl uchun nom tanlash, nutq yodlash, rol ijrosini mashq qilib borish singari vazifalarni bajarish qayd etilgan. 3-bosqich spektaklning namoyishi bilan yakunlanadi. Uyga vaziga ham loyiha ishiga bog‘liq bo‘lib, unda spektakldan olingan taassurotlarni yozib kelish so‘ralgan.

Navbatdagi loyiha ishi (“Orzu va imkon” bobi) **“Orzular sari dadil qadamlar”** [2:96] nomli individual loyiha bo‘lib, jami 8 bosqichni o‘z ichiga oladi. o‘quvchilar bosqichma-bosqich orzular ro‘yxatini shakllantirish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash, orzuga yetishish uchun tavsiyalar to‘plash, reja tuzish, kundalik ishlari yozilgan jadval yuritish kabi ishlarni amalga oshiradilar. Loyiha ishining natijasi taqdimot



ko‘rinishida taqdim etiladi. Uyga berilgan vazifa topshirig‘iga ko‘ra, o‘quvchi sinfdoshining taqdimoti orqali tanishgan foydali tavsiyalarni yozib kelishi lozim.

“Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi orqali o‘quvchini o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishish uchun harakat qilish, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olish, kundalik ishlarini rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanishga o‘rgatish mumkin.

Darslikdagi so‘nggi loyiha o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi **“Zukko kitobxon”** (“Kitob – bilim bulog‘i” bobi) loyihasi bo‘lib, mazkur loyiha ishi jamoaviy turga mansub [2:129].

Mazkur loyiha ishining mazmuniga ko‘ra, o‘quvchilar taklif etilgan to‘rtta kitobdan bittasini tanlab olib guruhlariga birlashgan holda mutolaa qiladilar va o‘qish davomida berilgan topshiriqlarni bajarib boradilar. Ishtirokchilar loyiha taqdimoti uchun asar haqida qisqa ma‘lumot, “Mutolaa sharhi” jadvali, asar uchun chizilgan rasmlar namoyishini tayyorlashlari lozim.

Loyiha ishining natijalari tahlili uy vazifasi va “Bob yuzasidan takrorlash” mavzusida yana davom etadi: “Zukko kitobxon” loyihasi haqida tuman, shahar, viloyat gazetalaridan biriga xabar matni yozish hamda yozilgan xabar matnlaridan birini ko‘rib chiqish va tahlil qilish topshiriqlari berilgan.

Yuqorida yangilangan 5-sinf “Ona tili” darsligidagi o‘quv loyihalarining mazmuni bilan tanishtirildi va qisqacha tahlil qilindi. 2022-yilda nashrdan chiqqan 6-va 10-sinf “Ona tili” darsliklarida ham loyihaga asoslangan topshiriqlar berilgan edi. Mazkur darsliklardagi loyiha ishlari loyiha texnologiyasining xususiyatlarini qisman o‘zida aks ettirgan, topshiriqlarda ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlangan edi [5,6].

Lekin 5-sinf “Ona tili” darsligini tahlil qilar ekanmiz, o‘quv loyihalari bilan ishlashga jiddiy e‘tibor qaratilgani, loyiha ishlari ham son, ham sifat jihatidan o‘sganligining guvohi bo‘lamiz. Har bir loyiha ishi puxta o‘ylangan, vazifalar bosqichma-bosqich taqsimlangan, o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar aniq va lo‘nda tushuntirib berilgan. O‘quv loyihalari uchun tanlangan mavzular ham o‘quvchi yoshiga mos va ularning qiziqishlarini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birgalikda, darslikda jamoaviy va yakka tartibdagi loyihalarning teng miqdorda berilishi hamda almashinib kelishi diqqatga sazovordir.

Ona tili darsliklarida o‘quv loyihalarining soni ko‘payib borishi mazkur texnologiya amaliyotda natija ko‘rsatayotganidan, til o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali bo‘lishiga yordam berayotganidan dalolat beradi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova K. va b. Ona tili. 5-sinf (I qism). Darslik – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 114 b.
2. Mavlonova K. va b. Ona tili. 5-sinf (II qism). Darslik – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.
3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. / Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. – М.: Издательский центр Академия, 2002. – 272 с.
4. Turg'unova N. Ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili. Til va adabiyot.uz, 2024-yil 3-son. 94-97-b.
5. Turg'unova N. 2024. 10-sinf “Ona tili” darsligida loyihaga asoslangan topshiriqlarning berilishi. O‘zbekiston: til va madaniyat. 4[1]. 53-58-b.
6. Shea, A. (2016) How to give effective feedback in PBL. Creative teaching & Learning, vol 6.2. P 56-63.